

## O‘ZBEK XALQ NUTQIDA QO‘LLANADIGAN EVFEMIZMLARNING LINGVOPRAGMATIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Umaraliyeva Dilnoza Shukurjon qizi

Termiz davlat universiteti, magistranti

e-mail: dilnozaumaraliyeva802@gmail.com

+998948219499

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19852582>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda o‘zbek xalq nutqida qo‘llanadigan evfemik birliklarning semantik, pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki nutqida noqulay, salbiy, qo‘pol yoki ijtimoiy jihatdan nozik tushunchalarni bilvosita va yumshoq shaklda ifodalash usullari o‘rganiladi. Shuningdek, evfemizmlarning milliy tafakkur, kommunikativ xulq va nutq madaniyati bilan bog‘liqligi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** evfemizm, lingvopragmatika, lingvomadaniyat, tabu, semantika, kommunikatsiya, nutq etiketi.

Til jamiyat tafakkuri, madaniyati va ma‘naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Har bir xalq tilida muayyan tushunchalarni bevosita emas, balki yumshatilgan, bilvosita shaklda ifodalash an‘anasi mavjud. Ana shunday vositalar tilshunoslikda evfemizm termini bilan yuritiladi. Evfemizm yunoncha “euphemismos” so‘zidan olingan bo‘lib, “yaxshi gapirish”, “ma‘qul tarzda ifodalash” ma‘nolarini anglatadi. Evfemizm – bu nutqda qo‘pol, keskin yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul hisoblangan tushunchalarni yumshoqroq shaklda ifodalovchi til birligidir. Ular ko‘pincha tabu tushunchasi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi va jamiyatning madaniy-axloqiy me‘yorlarini aks ettiradi. “Evfemizm natijasida sodir bo‘lgan hosila semema ham boshqa hosila smemalar kabi pragmatik semani vujudga keltiradi”.<sup>1</sup>

Mazkur hodisa o‘zbek tilida ham qadimdan shakllanib, ayniqsa xalq og‘zaki nutqida faol qo‘llanib kelmoqda.

O‘zbek xalq nutqida evfemik birliklarning keng qo‘llanishi milliy kommunikativ xulq me‘yorlari bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek xalqiga xos andisha, hayo, kattaga hurmat, kichikka izzat, suhbatdoshning ruhiy holatini hisobga olish kabi qadriyatlar noqulay mazmundagi axborotni yumshoq shaklda bayon etishni taqozo etadi. Shu sababli xalq nutqida ko‘plab evfemik vositalar shakllangan.

Evfemizmlar semantik jihatdan turli tematik guruhlariga mansub bo‘ladi. Jumladan, o‘lim bilan bog‘liq evfemizmlar xalq nutqida eng faol qatlamlardan biridir. Masalan, “o‘ldi” leksemasi o‘rnida “olamdan o‘tdi”, “ko‘z yumdi”, “rahmatli bo‘ldi”, “bandalikni bajo keltirdi”, “ajali yetdi”, “yo‘qoldi” kabi birliklar qo‘llanadi. Ushbu ifodalarda salbiy mazmunning emotsional ta‘siri kamayadi va nutq etiketi saqlanadi.

Kasallik va jismoniy nuqson bilan bog‘liq birliklarda ham evfemiklashuv kuzatiladi. Masalan, “ko‘r” o‘rnida “ko‘zi ojiz”, “kar” o‘rnida “eshitishi sust”, “nogiron” o‘rnida “imkoniyati cheklangan shaxs” kabi shakllar ishlatiladi. Bu holat jamiyatda inson sha‘nini hurmat qilish tamoyili bilan izohlanadi.

Yosh va ijtimoiy mavqe bilan bog‘liq evfemizmlar ham xalq nutqida keng tarqalgan. “Qari” o‘rnida “yoshi ulug‘”, “keksaygan”, “nuroniy”; “kambag‘al” o‘rnida “ro‘zg‘ori tor”, “ahvoli

<sup>1</sup> Toxirov.Z.T. Pragmatik sema. - Toshkent: Zarqalam, 2004. -22b

nochor”, “imkoniyati cheklangan” kabi ifodalar qoʻllanadi. Bunday vositalar orqali salbiy baholash kuchi kamaytiriladi.

Oilaviy-maishiy sohada ham evfemizmlar muhim oʻrin tutadi. Jumladan, “homilador” maʼnosida “ogʻir oyoq”, “yukli”, “farzand kutmoqda”, “boshi qorongʻu”; “ajrashdi” oʻrnida “yoʻllari ayro tushdi”, “birga yashamay qoʻydi”, “yulduzi yulduziga toʻgʻri kelmadi” kabi birliklar uchraydi. Bu holat oilaviy munosabatlarga xos noziklikni aks ettiradi.

Evfemik birliklarning pragmatik tabiati ularning nutq jarayonidagi vazifasi bilan belgilanadi. Ular kommunikativ vaziyatga mos ravishda turli funksiyalarni bajaradi. “Evfemizm natijasida sodir boʻlgan hosila semema ham boshqa hosila smemalar kabi pragmatik semani vujudga keltiradi”.<sup>2</sup> Pragmatik nuqtai nazardan evfemizmlar bir necha kommunikativ funksiyani bajaradi. Birinchidan, ular salbiy axborotning psixologik taʼsirini yumshatadi. Ikkinchidan, suhbatdosh shaʼni va qadr-qimmatini saqlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, konfliktogen vaziyatlarning oldini oladi. Toʻrtinchidan, soʻzlovchining madaniy saviyasi va nutq odobini namoyon etadi. Demak, evfemizm faqat leksik vosita emas, balki muloqotni boshqaruvchi pragmatik mexanizm hamdir. Avvalo, evfemizmlar nutqning etik meʼyorlarini taʼminlaydi. Ular orqali suhbatdoshga nisbatan hurmat va muloyimlik ifodalanadi. Masalan, “Kechirasiz buvijon Hasan amakining mahallalari shumi?”<sup>3</sup>

Lingvomadaniy jihatdan qaralganda, evfemizmlar xalqning olamni idrok etish usuli, milliy qadriyatlar va mental stereotiplarini oʻzida mujassam etadi. Masalan, oʻlimni bevosita tilga olmaslik, yoshi katta insonni alohida hurmat bilan atash, kasallikni oshkora aytmaslik kabi holatlar oʻzbek xalqining axloqiy-estetik qarashlari bilan bogʻliqdir.

Bugungi globallashuv sharoitida ayrim anʼanaviy evfemizmlar isteʼmoldan chiqayotgan boʻlsa, ayrimlari yangicha shaklda yashab qolmoqda. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari va internet tili orqali yangi evfemik birliklar ham kirib kelmoqda. Bu esa evfemizmlarning dinamik lisoniy hodisa ekanini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek xalq nutqida qoʻllanadigan evfemizmlar tilning boy pragmatik imkoniyatlarini namoyon etuvchi, milliy nutq madaniyati va lingvomadaniy qadriyatlarni ifodalovchi muhim birliklardir. Ularni sistem-struktur, semantik, pragmatik va lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish oʻzbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Toxirov.Z.T. Pragmatik sema. - Toshkent: Zarqalam, 2004. -22b
2. Toxirov.Z.T. Pragmatik sema. - Toshkent: Zarqalam, 2004. -22b
3. Omunturdiyev A.J. Oʻzbek tilining qisqacha evfemik lugʻati. – Toshkent. Fan nashriyoti. 2006. -96b.
4. <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/download/12076/8594/8664>

<sup>2</sup> Toxirov.Z.T. Pragmatik sema. - Toshkent: Zarqalam, 2004. -22b

<sup>3</sup>Omunturdiyev A.J. Oʻzbek tilining qisqacha evfemik lugʻati. – Toshkent. Fan nashriyoti. 2006. -96b.